



A linguopsychological study of patriarchal society's influence on gender roles

Maftuna MADRAKHIMOVA¹

Urgench State University named after Abu Rayhan Biruni

ARTICLE INFO

Article history:

Received April 2025
Received in revised form
10 April 2025
Accepted 2 May 2025
Available online
25 June 2025

Keywords:

gender,
sociolinguistics,
linguo-psychology,
patriarchal society,
gender stereotypes,
psychological roles,
male speech,
female speech.

ABSTRACT

This article defines the concept of gender and provides a brief overview of what the field of genderology studies, its connections with other disciplines, and the history of its development. Additionally, the influence of patriarchal society on gender roles is concisely and clearly illustrated through examples from literary works and Uzbek folk proverbs. The emotional experiences and psychological states of female and male characters are explored from a linguopsychological perspective.

2181-3701/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss6/S-pp93-97>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Patriarxal jamiyatning gender rollarga ta'sirini lingvopsixologik jihatdan o'rganish

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

gender,
sotsiolingvistika,
lingvopsixologiya,
patriarxal jamiyat,
gender stereotiplar,
psixologik rollar,
erkak nutqi,
ayol nutqi.

Ushbu maqolada gender tushunchasiga ta'rif berilib, genderologiya fani nimani tadqiq etishi, uning qaysi sohalar bilan aloqasi borligin, mazkur soha rivojlanish tarixi haqida qisqacha ma'lumot berib o'tilgan. Shuningdek, patriarxal jamiyatning gender rollarga ta'siri adabiy asarlar, o'zbek xalq maqollari misolida qisqa va aniq keltirilgan. Ayol va erkak obrazlarining hissiy kechinmalari hamda ruhiy holati lingvopsixologik tomondan ochib berilgan.

¹ PhD student, Urgench State University named after Abu Rayhan Biruni.

Лингвopsихологическое изучение влияния патриархального общества на гендерные роли

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

гендер, социолингвистика, лингвopsихология, патриархальное общество, гендерные стереотипы, психологические роли, мужская речь, женская речь.

В данной статье даётся определение понятия гендера, а также раскрывается, что изучает наука гендерология, с какими областями знаний она связана и кратко изложена история её развития. Также кратко и чётко проанализировано влияние патриархального общества на гендерные роли на примерах литературных произведений и узбекских народных пословиц. Эмоциональные переживания и психическое состояние женских и мужских образов раскрыты с лингвopsихологической точки зрения.

KIRISH

Til bu jamiyatning aks sadosi, psixologik tafakkur, madaniyat va ijtimoiy normalarning ifodasidir. Gender rollari esa aynan til orqali avloddan-avlodga uzatiladi. Patriarxal jamiyatlarda til ayol va erkaklarning ijtimoiy pozitsiyasini mustahkamlovchi asosiy vositaga aylanadi. Lingvopsixologiya shunday jarayonlarni o'rganadi: odamning til tanlovi, nutq ohangi, so'z birikmalari orqasida qanday psixologik holat, ijtimoiy bosim yoki madaniy identitet yotganini aniqlaydi. Ushbu maqolada patriarxal ijtimoiy tuzumda erkak va ayol obrazlarining til orqali qanday shakllanishi, ularning o'zini anglash va ifoda etishdagi lingvopsixologik farqlari tahlil qilinadi.

ASOSIY QISM

Gender tushunchasi haqida gap ketar ekan, avvalo ushbu terminning o'ziga alohida to'xtalib o'tsak. Gender tushunchasi birinchi bor 1934-yilda amerikalik olim Margaret Mead tomonidan kiritilgan bo'lib, uning "Sex and Temperament in Three Primitive Societies" kitobida biologik jinsni ijtimoiy jinsdan farqlash g'oyasini ilgari surgan. (1) Keyinchalik bu izlanish gender munosabatlarini, jamiyatda erkak va ayol o'rtasidagi tenglik va farqlarning sabablarini o'rganadigan fan -ya'ni Genderologiya tashkil topishiga ilk qadamlardan biri bo'ldi. U sotsiologiya, psixologiya, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, madaniyatshunoslik kabi sohalar bilan uzviy bog'liq.

Genderologiya fan sifatida 1960–1970-yillarda G'arb sotsiologiyasida shakllana boshlagan. Feministik harakatlar, ayollar huquqlari uchun kurashlar natijasida genderni oid tadqiqotlar mustaqil ilmiy yo'nalishga aylandi. "Gender" tushunchasi- bu shunchaki biologik jinsni emas, balki **jamiyat tomonidan erkak va ayolga yuklangan ijtimoiy, madaniy, psixologik rollar** majmuasini anglatadi. Gender tushunchasi orqali insonning **ijtimoiy identiteti**, o'zini jamiyatda qanday tutishi, qanday kutishlar ostida yashashi va bu kutishlarga qanday moslashishi tushuniladi. Biologik jins tug'ilishda aniqlanadi, gender esa **ijtimoiy konstruksiyadir** –u tarbiya, madaniyat, din, til va an'analar orqali shakllanadi.

Genderni tilshunoslik bilan bog'lagan yana bir olim daniyalik tilshunos Yens Otto Yaspersen edi. Olim 1925-yilda ayollar tili va erkaklar tili o'rtasidagi farqlarni "Language: Its Nature, Development and Origin" (Til: uning tabiati, rivojlanishi va yaralishi) nomli kitobida batafsil yoritib berdi. Kitobda tilning jamiyatdagi roli, til tarixi, bolalar tili, chet tilining ta'siri haqida batafsil yoritgan va shu bilan birga kitobning butun bir bobi ayollar va erkaklar tili o'rtasidagi farqlarga bag'ishlangan. Olim ikki jins tili orasidagi farqlarni fonetik jihatdan ko'rsata olmaganiga qaramasdan, so'z boyligi, so'z tanlashdagi jinslararo

farqlarni o'zining bir qator tajribalari bilan asoslab bergan. Tilshunos tilning ayollar tomonidan qo'llanishiga ko'pincha salbiy baho bergan. Yaspersen ta'kidlashicha, ayollarning bo'rttirishga moyilligi tufayli ular ko'proq kuchaytiruvchi so'zlardan foydalanishadi va sintaksisga kelsak, ayollar ko'pincha jumalarni tugatmasliklarini ta'kidlaydi, uning fikricha, bu nomukammal fikrlashdan kelib chiqadi: chunki ular o'zlari xohlagan narsani o'ylamasdan gapira boshlaydilar. (2)

Shundan keyin bir qator rus tadqiqotchilari, shu jumladan; A.V. Kirilina, A.N. Telia, M.S. Kolesnikova, I.I. Xaleeva, O.S. Kamenskaya, M.D. Gorodnikova, Robin Tolmach Laffoflar ham tilda gender yondashuvga ahamiyat qaratishgan. Masalan A.V. Kirilina genderga quyidagicha ta'rif bergan va bizning fikrimizcha, ushbu tarif gender tushunchasi mohiyatini to'liq ochib bergan:

“Zamonaviy ma'noda gender individual biologiyaning natijasi yoki u yoki bu turdagi shaxs bo'lishga moyillik emas. Aytishimiz mumkinki, bu umuman individual xususiyat emas, balki har bir inson bir qismi bo'lgan jamiyat tomonidan o'rnatilgan tartibdir. Gender shaxsni ma'lum bir tarixiy bosqichda ma'lum bir jamiyatda qabul qilingan erkaklik yoki ayollikning ijtimoiy va madaniy jihatdan aniqlangan modeliga “singdirish” jarayonini ham, natijasini ham aks ettiradi. Shunday qilib, konseptual nuqtai nazardan, gender “jinsning tabiiy dominantini emas, balki ijtimoiy-madaniylik”ni ta'kidlaydi (3).

O'zbek izlanuvchilari ham gender masalalarga alohida e'tibor qaratgan, jumladan, M.Xudoyberganov gender stereotiplarini o'rgangan. Jamiyatda mavjud bo'lgan **gender stereotiplari** – bu erkak va ayollarga nisbatan oldindan shakllangan, odatda bir tomonlama yoki cheklovchi tasavvurlardir. Masalan:

- “Erkak yig'lamaydi.”
- “Ayol boshqaruvchi bo'la olmaydi.”
- “Ayol go'zalligi bilan baholanadi, erkak esa kuchi bilan.”

Bu stereotiplar insonning o'zini anglashiga, til orqali o'z fikrini erkin bildirishiga, shuningdek, ijtimoiy o'zini tutishiga ta'sir qiladi. (4)

Jamiyatda shaxsning o'zini anglashida til muhim vosita sanaladi. Til orqali shaxs o'z ijtimoiy rolini ifodalaydi, o'zligini anglaydi va unga mos ravishda psixologik portretini shakllantiradi. Ayniqsa, gender rollar va patriarxal stereotiplar hukmron bo'lgan muhitda til va psixologiya o'rtasidagi bog'liqlik aniqroq namoyon bo'ladi. Patriarxal jamiyatda erkak obrazining shakllanishi – bu ijtimoiy ongda tarixiy, madaniy va psixologik jihatdan mustahkamlangan tasavvurlar asosida yuzaga kelgan murakkab jarayondir. (5)

Patriarxal tizimning ta'siri alohida ahamiyatga ega, chunki bu erkaklar ustunlik qiladigan ijtimoiy tizim bo'lib, unda erkaklar yetakchi, hukmron, kuchli, aqlan ustun, ruhiyati barqaror deb hisoblanadi. Bunday stereotiplar ijtimoiy ongga chuqur singib ketgan bo'lib, til va muloqot vositalarida ham o'z aksini topadi. Masalan, o'zbek tilida ishlatiladigan “Erkak yig'lamaydi”, “Erkak gapidan qaytmaydi”, “Erkak bo'lsa, shunday bo'!” kabi maqollar shaxsga jamiyat tomonidan yuklatilgan talab va kutilmalarni ifodalaydi. Ayollar bo'lsa **mehribon, sabrli, itoatkor bo'lishi kerak** doim muloyim, yumshoq muomala qilishi, kechirishga tayyor bo'lishi kutiladi. **Ayolning asosiy vazifasi – ona bo'lish va uy ishlarini bajarish.** Bu stereotiplar o'zbek maqollarida ham o'z aksini topadi;

Misol (maqol): “Ayol sabr bilan uyni tutar.” (6)

Mazkur yondashuv bevosita lingvopsixologiyaning asosiy yo'nalishiga to'g'ri keladi, ya'ni **jamiyatdagi psixik omillar va tilning o'zaro ta'siri orqali insoniy identitet shakllanishi.** Patriarxal qadriyatlar shaxs psixikasiga ta'sir qilgani kabi, ularning **nutqdagi ifodasi** lingvopsixologik jihatdan o'rganilishi lozim. Lingvopsixologiya

insonning til orqali o'z ichki dunyosini qanday aks ettirishi, ijtimoiy-madaniy kontekstda o'zini qanday identifikatsiya qilishi bilan shug'ullanadi. Patriarxal jamiyatda erkaklar o'zini "ideal erkak" modeli asosida anglashga va shu modelga moslashishga harakat qiladi. Bu holat erkaklarning nutqida irodalilik, qat'iylik, hissiyotlarni yashirish kabi til birliklari orqali ifodalanadi. (6)

Masalan, erkaklar orasida "yumshoq", "nozik", "mayin" kabi so'zlardan qochish, o'z fikrini ko'proq buyruq ohangida yoki lo'nda tarzda bildirish holatlari kuzatiladi. Bu holat tilni o'rganish orqali shaxs psixologiyasini va ijtimoiy bosimni anglash imkonini beradi.

Erkak obrazining shakllanishida adabiyot, ommaviy madaniyat va xalq og'zaki ijodi muhim o'rin tutadi. O'zbek adabiyotida, ayniqsa folklorda, erkaklar doim kuchli, jasur, jasoratli, boshqaruvchi sifatida tasvirlanadi. Bunday tasvirlar bolalikdan ongga singdiriladi va natijada erkaklar bu idealga mos kelishga urinadi, bu esa ularning psixologik bosim ostida qolishiga olib keladi.

Misol uchun, "Alpomish" eposida Alpomish jasorat, sadoqat va kuch timsoli sifatida tasvirlanadi. Bu obrazlar jamiyatda erkakdan nimani kutishlari haqida aniq lingvopsixologik model yaratadi (7).

Ayol va erkak obrazlarining lingvopsixologik jihatlari tahliliy qarama-qarshiliklar shuni ko'rsatadi-ki:

Ayol nutqi: emotsional, o'zini fido qilishga tayyor, lekin ezilgan

"Mehrobdan chayon" romanidagi Zebi obrazini tahlil qiladigan bo'lsak, uning nutqi va ruhiy holatida ijtimoiy bosim, ayollik hissiyotlari, ichki ezilish va bo'ysunuv motivlari yaqqol ko'zga tashlanadi.

Misol (roman matnidan):

"...Men endi baxtsizman, otamni yodga olib, qop-qora tunlarda yig'layman..." Bu satr Zebi nutqida hissiyot, ichki iztirob va o'z taqdiriga taslim bo'lish psixologiyasini ochib beradi. (8)

Zebi ko'p hollarda **o'zini emas, boshqalarning hukmini ustuvor ko'radi**, bu ayol obraziga patriarxal jamiyat tomonidan yuklatilgan "sabrli, irodasiz" rolni aks ettiradi.

Erkak nutqi: nazorat, buyruq, hisni bostirish

Asardagi erkak obrazlar (Muhsinbek, Xoliqbek) asosan **nutq orqali nazoratni ifoda etuvchi**, o'z emotsiyasini yashiruvchi va o'zini jamiyatda muhim deb biluvchi shaxslardir.

Misol (Muhsinbek):

"Sen kimsan menga 'yo'q' deyishga?! Ayol kishi bunga jur'at qilmasin!" Bu gap orqali erkak obrazi ijtimoiy jihatdan ustun, buyruq beruvchi, ayolni tobe sifatida ko'ruvchi pozitsiyani egallaydi. (8)

Muhsinbekning nutqi:

- Imperativ (buyruq-ohang)
- So'z tanlashda keskinlik
- Hisni ifoda etmaydi

Ayol obrazlarida nutq ko'pincha ichki mojaroga asoslanadi: ular jamiyat talabiga moslashish va o'z istaklarini yashirish o'rtasida bo'ladi. Bu esa lingvopsixologik zo'riqishga olib keladi. Zebi – sevgi va ijtimoiy majburiyat o'rtasida eziladi, bu uning nutqida o'zini ayblov, past baholash, sukut va ko'z yoshlari orqali namoyon bo'ladi.

Erkak obrazlari esa his-tuyg'ularni yashirish orqali o'zlarini "erkaklik" me'yorida tutishga harakat qiladi. Bu esa ularni ham ichki ijtimoiy ziddiyatlarga olib keladi. Xoliqbek misolida, tashqaridan qat'iyatli tuyulsa-da, ichki ruhiy parokandalik namoyon

bo'ladi. Shuni aytish joiz-ki ayol va erkaklarning nutqidagi tafovutlarni **ixtiyoriy emas**, balki **jamiyat bosimi ta'sirida shakllangan psixologik til akti** sifatida tahlil qilishgan. Bu holat lingvopsixologiyada "**kontekstual til va psixologik moslashuv**" deb ataladi. (9)

Ayol va erkak tilidagi tafovutlar nafaqat grammatik darajada, balki psixologik holatda ham namoyon bo'ladi. Ayollar jamiyatda til orqali o'z his-tuyg'ularini ifoda etishda nisbatan erkinroq bo'lishsa-da, ular ko'pincha "ortiqcha gapiradi", "nizo chiqaradi" kabi stereotiplarga duch keladi.

Erkaklar esa til vositasida ichki dunyosini erkin ifoda eta olmaydi. Bu esa stress, depressiya va kommunikativ nosog'lomlikka olib keladi. Gender rollar erkak va ayolning tilidagi natural rivojlanishni to'sib qo'yadi. (10)

XULOSA

Gender – bu biologik emas, balki ijtimoiy, madaniy va psixologik konstruksiyadir. Genderologiya fani bu konstruksiyaning qanday shakllanishini, qanday ijtimoiy, tilshunoslik va madaniy omillar orqali mustahkamlanishini tahlil qiladi. O'zbek tilida gender stereotiplari ko'p yillik patriarxal madaniyat ta'sirida shakllangan bo'lib, ular shaxsning til orqali o'zini anglashiga, jamiyatdagi o'rnini belgilashiga ta'sir etadi. Bu jarayonni chuqurroq o'rganish tilshunoslik va psixologiya kesishmasida muhim ilmiy yondashuvdir. "Mehrobdan chayon" romani misolida erkak va ayol obrazlarining **lingvopsixologik tahlili** shuni ko'rsatadiki, patriarxal tuzum insonning faqat ijtimoiy emas, balki ruhiy, til orqali namoyon bo'ladigan ichki holatini ham shakllantiradi. Erkaklar – nutq orqali o'z ustuvorligini ko'rsatishga majbur; ayollar esa – muloyimlik, shubha va itoat orqali ijtimoiy mezonlarga moslashishga majbur bo'ladi. Til bu yerda **ruhiy muvofiqlashuv vositasi** sifatida xizmat qiladi. Shu bois gender stereotiplarini yo'qotish faqat ijtimoiy emas, balki lingvopsixologik tahlil orqali amalga oshirilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Margaret Mead. Sex and Temperament in Three Primitive Societies, 1934
2. Jespersen O. Language: Its Nature, Development and Origin. – London: Allen and Unwin, 1922. – 443 p.
3. Кирилина А.В. Гендер: Лингвистические аспекты. – Москва: Институт социологии РАН, 1999. –189 с.
4. Xudoyberganov M. O'zbek tilida gender lingvistikasi va stereotiplar. 2021.
5. Fairclough, N. Language and Power. London: Longman, 1989.
6. Qodirova X. Maqollar tarkibida gender stereotiplar. – Tilshunoslik yangiliklari. 2020.
7. Bahodir Sarimsoqov. "Alpomish – o'zbek xalq qahramonlik eposi", Fan nashriyoti, 1999.
8. Қодирий А. Меҳробдан чайон. – Тошкент: Ғафур Ғулом нашриёти. 1929
9. Jo'rayev Sh. Til va jamiyat: Gender yondashuv. – O'zbek tili va adabiyoti. 2019.
10. Tannen, D. You Just Don't Understand: Women and Men in Conversation. New York: Ballantine, 1990.
11. <http://dis.natlib.uz/ru>
12. <http://ziyonet.uz>